

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 302 sahifa.
2025-yil, 16-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
<i>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</i>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
<i>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</i>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
<i>Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich</i>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
<i>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</i>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
<i>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</i>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
<i>Мансурова Сайёра Бахтияровна</i>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
<i>Xolikova Oydin Olimjonovna</i>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
<i>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</i>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
<i>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</i>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
<i>Suyunov Asror Baxtiyorovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
<i>Z.Teshayev</i>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
<i>Ismailov Allayor Rashidovich</i>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
<i>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</i>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
<i>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
<i>Abduraxmonov Akmal Nurmatov o'g'li</i>	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdukurimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	



QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI

Hamroyev G'ayratjon Sultonovich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ghamroyev8775@gmail.com

ORCID: 0009-0000-8679-2325

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida investitsiya muhitining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda DXSh mexanizmlarining viloyat iqtisodiyotiga ta'siri, investorlar faolligi va xususiy kapitalning jalb etilish darajasi empirik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Shuningdek, huquqiy-institutsional muhit, infratuzilma loyihalari va mahalliy hokimiyatning roli baholanadi. Tahlillar asosida investitsiya muhitini yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, investitsiya muhiti, Qashqadaryo viloyati, infratuzilma loyihalari, xususiy sektor.

Abstract. This article analyzes the formation of the investment environment in Kashkadarya region based on public-private partnership (PPP), its development trends, and existing opportunities. The study examines the impact of PPP mechanisms on the regional economy, investor activity, and the level of private capital involvement using empirical data. In addition, the legal and institutional environment, infrastructure projects, and the role of local authorities are evaluated. Based on the analysis, relevant conclusions and recommendations are developed to further improve the investment climate.

Keywords: public-private partnership, investment environment, Kashkadarya region, infrastructure projects, private sector.

Аннотация. В данной статье анализируется формирование инвестиционной среды Кашкадарьинской области на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП), её тенденции развития и существующие возможности. В исследовании рассматривается влияние механизмов ГЧП на экономику региона, активность инвесторов и степень привлечения частного капитала на основе эмпирических данных. Кроме того, оцениваются правовая и институциональная среда, инфраструктурные проекты и роль местных органов власти. На основе анализа разработаны соответствующие выводы и рекомендации по дальнейшему совершенствованию инвестиционного климата.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, инвестиционная среда, Кашкадарьинская область, инфраструктурные проекты, частный сектор.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, hududiy darajada iqtisodiy faollikni oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) instituti investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi strategik vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. DXSh modeli davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikka asoslanib, kapital qo'yilmalarning diversifikatsiyasini, risklarni taqsimlashni, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni ta'minlaydi. Bu esa investitsiya muhitining raqobatbardoshligini oshiradi, investorlar uchun barqaror va kafolatlangan sharoit yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, DXSh orqali amalga oshirilgan loyihalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, ayniqsa transport, energetika, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida muhim ijobiy natijalar bergan. Qashqadaryo viloyati respublikaning yirik sanoat va agrosanoat salohiyatiga ega hududlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda viloyatda amalga oshirilayotgan DXSh asosidagi loyihalar soni va hajmi ortib bormoqda. Bu jarayon investitsion muhitni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Viloyatda neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish, transport va logistika infratuzilmasi singari yo'nalishlarda xususiy sektor ishtiroki kuchaymoqda. Shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan kafolatlar, soliq imtiyozlari

va boshqa rag'batlantiruvchi choralar investorlar ishonchini oshirmoqda. Shunga qaramay, viloyat miqyosida DXSh loyihalarining salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani, investorlar uchun amaliy muhitda hali ham ayrim to'siqlar mavjudligi kuzatilmoqda. Ana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda, mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida DXSh asosida investitsiya muhitining shakllanishi, mavjud imkoniyatlar va muammolar, hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari ilmiy asosda o'rganiladi.

MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini faollashtirish va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki kabi nufuzli moliyaviy institutlar o'z hisobot va tahlillarida DXShni infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va davlat xarajatlarini optimallashtirishdagi o'rni haqida keng ma'lumotlar taqdim etgan. Jumladan, Jahon bankining 2021-yilgi "Private Participation in Infrastructure" hisobotida investitsiyalar hajmi va loyiha samaradorligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlik ta'kidlangan. Mahalliy tadqiqotchilar ham DXShning O'zbekistondagi rivojlanishi, huquqiy bazasi va amaliyotini tahlil qilishgan. A.Abdullayev (2021) tomonidan davlat-xususiy sheriklikning huquqiy-institutsional mexanizmlari, uning investitsion muhitga ta'siri tahlil qilinib, xususiy investorlar uchun barqaror shart-sharoitlar yaratish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, M.Sobirov (2022) o'z izlanishlarida viloyatlar kesimida DXSh asosidagi infratuzilma loyihalarining amalga oshirilish holatini o'rganib, mintaqaviy investitsiya siyosatida DXSh mexanizmlarining barqaror rivojlanishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Qashqadaryo viloyati bo'yicha esa mavjud ilmiy manbalar cheklangan bo'lib, asosan loyiha hisobotlari, Statistika agentligi ma'lumotlari va DXSh markazining ochiq bazalari asosida umumiy tahlillar mavjud. Shu jumladan, "Qashqadaryo viloyati investitsiya dasturi – 2022" hujjatida DXSh orqali amalga oshirilayotgan loyihalar, ularning qiymati, investorlar tarkibi va davlat kafolatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ammo bu ma'lumotlar chuqur ilmiy tahlil emas, balki deskriptiv xarakterga ega. Xalqaro miqyosda esa "PPP Knowledge Lab" tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar va monitoring tizimlari DXSh loyihalarining investitsiyaviy samaradorligini baholashda muhim manba hisoblanadi. Ularning tavsiyalarida huquqiy aniqlik, xususiy sektorga beriladigan kafolatlar, shaffof tanlov tartiblari va investorlar uchun barqaror institutsional muhit zarurligi qayta-qayta urg'ulanadi. Mavjud adabiyotlar va amaliy manbalar DXSh asosida investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy, institutsional va iqtisodiy omillar muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, aynan Qashqadaryo viloyatida bu mexanizmlarning qanday natijalar bergani, qanday muammolar mavjudligi va istiqbollari qanday — bu boradagi ilmiy izlanishlar yetarli emas. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishni maqsad qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida investitsiya muhitining shakllanishi va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy va amaliy yondashuvlar integratsiyalangan holda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Normativ-huquqiy asoslarning tahlili: birinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, Prezident farmon va qarorlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda DXSh markazining reglamentlari o'rganildi. Bu hujjatlar asosida Qashqadaryo viloyatida DXSh asosidagi investitsiya loyihalarining huquqiy asoslari aniqlashtirildi va ularga ta'sir qiluvchi tashkiliy va institutsional omillar tahlil qilindi.

Statistik va deskriptiv tahlil: tadqiqotning asosiy empiric qismi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, DXSh markazi, Investitsiya dasturi va viloyat hokimligi ma'lumotlariga tayandi. 2019–2024 yillar oralig'ida Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan DXSh loyihalari soni, investitsiya hajmi, tarmoqlar bo'yicha taqsimoti, va loyihalarda ishtirok etgan xususiy kompaniyalar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida investitsion muhitning dinamikasi va tendensiyalari baholandi.

Ekspert intervyular: mahalliy hokimiyat vakillari, xususiy sektor tadbirkorlari va DXSh loyihalari boshqaruvida ishtirok etgan mutaxassislar bilan yarim strukturaviy intervyular tashkil etildi. Bu orqali DXSh loyihalariga oid subyektiv baholar, amaliy tajribalar va tizimdagi muammolar haqida chuqurroq ma'lumotlar olindi. Intervyular maxfiylik sharti asosida amalga oshirildi va kontent tahlil usuli bilan umumlashtirildi.

Solishtirma tahlil: Qashqadaryo viloyatidagi investitsiya muhiti holati boshqa viloyatlar, jumladan, Samarqand va Andijon viloyatlari bilan qiyoslandi. Bu orqali DXSh mexanizmlarining hududlararo farqlari, ularning investitsion jalb qilishdagi o'rni va amaliy samaradorligi baholandi. Solishtirma tahlil investitsiya faolligini ta'sirga ega bo'lgan ichki va tashqi omillarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali maqolada keltirilgan xulosalar ishonchli empirik asosga ega bo'lib, Qashqadaryo viloyatidagi DXSh amaliyotining real holatini aks ettiradi. Tahlillar natijasida aniqlangan faktlar maqolaning keyingi bo'limida statistik dalillar bilan yoritiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Qashqadaryo viloyatida 2019–2024 yillar davomida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshirilgan loyihalar, ularning investitsiya muhitiga ta'siri va mavjud tendensiyalar chuqur tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagi yo'nalishlarda umumlashtirildi:

DXSh asosidagi investitsiya loyihalarining ko'lami: o'rganilgan davrda Qashqadaryo viloyatida jami 52 ta DXSh loyihasi ro'yxatga olingan bo'lib, ularning umumiy qiymati qariyb 950 milliard so'mni tashkil etdi. Loyihalarning 60% i sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida, 25% infratuzilma (yo'llar, suv ta'minoti, energiya tarmoqlari) va qolgan 15% i sanoat va servis sohalariga to'g'ri keladi. Bu holat DXSh investitsiyalarining ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Investitsiya jalb qilish dinamikasi: DXSh asosidagi loyihalar viloyatga investitsiya oqimini sezilarli darajada faollashtirgan. Jumladan, 2020-yilda viloyatda DXSh loyihalari orqali jalb etilgan xususiy investitsiyalar hajmi 180 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 2 barobarga oshib, 360 mlrd so'mga yetdi. Ayniqsa, tibbiyot markazlari, maktabgacha ta'lim muassasalari va ichimlik suvi ta'minoti sohasidagi loyihalar investorlar uchun jozibador bo'lmoqda.

Muammolar va to'siqlar: intervyu va tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator tizimli muammolar mavjud:

Mahalliy hokimiyatlarda DXSh loyihalarini tashkil qilish va boshqarish bo'yicha mutaxassislar salohiyati yetarli emas;

Loyihalarni tanlash va baholashda ochiqlik va shaffoflik yetarli emas;

Ba'zi holatlarda xususiy sektor manfaatlari e'tibordan chetda qoladi;

Davlat tomonidan kafolatlarning yo'qligi xususiy investorlar uchun tavakkal darajasini oshiradi.

Institutsional va infratuzilmaviy omillar: DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar orqali Qashqadaryo viloyatining infratuzilmasi sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Misol uchun, 2022-yilda DXSh orqali Shahrisabz tumanida yangi diagnostika klinikasi tashkil etilib, yiliga 35 mingga yaqin aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, yo'l tarmoqlarida, ichimlik suvi ta'minotida va energiya ta'minotida xususiy sektor ishtirokining ortishi kuzatilmoqda.

Taqqoslash va mintaqaviy xulosa: Samarqand va Andijon viloyatlaridagi DXSh amaliyoti bilan qiyoslaganda, Qashqadaryo viloyatida loyihalar soni jihatidan ortda qolmoqda, biroq investorlarning qiziqishi ortib borayotgani ijobiy tendensiyadir. DXSh orqali yaratilayotgan infratuzilma ob'yektlari, xizmatlar sifati va yangi ish o'rinlari investitsiya muhitining raqobatbardoshligini oshirmoqda. Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida DXSh asosida investitsion faollik ortib borayotgan bo'lsa-da, mavjud huquqiy, institutsional va tashkiliy muammolarni bartaraf etish orqali bu jarayonni yanada jadallashtirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida investitsiya muhitini shakllantirish yo'nalishida ijobiy tendensiyalar mavjud. So'nggi yillarda viloyatda DXSh mexanizmlari orqali ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va xizmatlar sohalarida bir qator loyihalar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar xususiy investorlarning ishtirokini rag'batlantirib, viloyat iqtisodiyotida barqaror investitsion muhit shakllanishiga turtki bermoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolar — normativ-huquqiy noaniqliklar, institutsional resurslarning yetishmasligi, loyiha tanlovi va monitoringdagi kamchiliklar — DXSh tizimining salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, xususiy sektorning ishonchini mustahkamlash, davlat tomonidan beriladigan kafolatlar va imtiyozlarning aniq mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

DXSh loyihalari uchun institutsional salohiyatni oshirish:

Mahalliy hokimiyat va sektor idoralarida DXSh loyihalarini boshqarish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etish, malakali mutaxassislar tayyorlash.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: DXSh jarayonlari uchun aniq, soddalashtirilgan va investor manfaatlarini himoya qiluvchi qonunchilik asoslarini yaratish.

Shaffof tanlov va monitoring tizimlarini joriy qilish: DXSh loyihalari bo'yicha tender jarayonlarini ochiq platformalarda yuritish, baholash va monitoring tizimlarini mustahkamlash.

Hududiy investitsiya dasturlarini DXSh asosida kengaytirish:

Har bir tuman va shahar kesimida salohiyatli DXSh loyihalari ro'yxatini tuzish va bu loyihalarni ochiq e'lon qilish orqali investorlarni jalb etish.

Xususiy sektor uchun moliyaviy rag'batlar yaratish: DXSh loyihalarida ishtirok etuvchi investorlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yer ajratish va yengil kreditlar kabi mexanizmlarni takomillashtirish.



Xulosa qilib aytganda, DXSh Qashqadaryo viloyatining investitsion salohiyatini ro'yobga chiqarish, yangi infratuzilma yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun tizimli yondashuv, ochiqlik va hamkorlik muhitini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil, 11-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6079-son "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2020-yil, 24-oktabr.
3. Qashqadaryo viloyati Investitsiya dasturi. Qashqadaryo viloyat hokimligi, 2022-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti: www.stat.uz
5. Davlat-xususiy sheriklik markazi rasmiy veb-sayti: www.ppp.mift.uz
6. Jahon banki. Private Participation in Infrastructure Database, World Bank Group, 2021.
7. Muxitdinov, Xudayar. "Mintaqada asalarichilikni rivojlantirish va asalarilarning kasallanish xavfini oldini olish." Теоретические аспекты становления педагогических наук 3.14 (2024): 144-151.
8. Muxitdinov, Kh S., and L. N. Khudoyorov. "Information-analytical support systems forecasting small businesses." Web of Scholar 5 (2016): 12-14.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100